



YORDIN AYRU KO'NGUL...

Zilola Ortiqova

SamDChTI akademik litseyi Ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada shoir Alisher Navoiy g'azallarining mazmuni va ularda ishlatilgan badiiy san'atlarning ta'sirchanligi haqida fikr yuritilgan.*

Kalit so'zlar: *Alisher Navoiy, g'azal, yor, ko'ngil, mulk, sulton, yo'q, jism, jon, musulmon, tufroq, gul, rayhon, qorong'u, kecha, oy, tiriklik suvi, zulmat, do'zax, jannat bog'i, mastliq, imkon, bor, uqubat, hajr, dard, vasl, darmon, tashbeh, tazod, tanosib*

Alisher Navoiy g'azallari g'oyat san'atkorona tikilgan harir matoga o'xshaydi, undagi ayni shu nafislik, kuy maromini quyidagi g'azal orqali bilib olamiz. Bu g'azalda oshiq ko'nglining iztiroblari mantiqiy bog'lik asosida izohlanadi. G'azalning bosh maqsadi yorsiz ko'ngil boshiga tushadigan g'amlarni tasvirlash. G'azalda tadrij san'ati asosida misrama-misra, baytma-bayt ma'no kuchaytirilgan. G'azalda ustivorlik qilgan she'riy san'atlar tashbih, tadrij, tanosib, tazod o'z o'rnida qo'llangan.

Yordin ayru ko'ngul mulkedurur sultoni yo'q,

Mulkkim sultoni yo'q, jismedururkim, joni yo'q.

Yorsiz qolgan ko'ngil podshosidan ayrilgan mamlakatga tashbeh qilinadi. Baytda ko'ngilning mamlakat hamda jismga qiyos qilingan. Podshosi (rahbari) yo'q mamlakat misoli jonsiz jism deya o'xshatilgan.

Jismdin jonsiz ne hosil, ey musulmonlarkim, ul

Bir qaro tufroqdekdurkim, gul-u rayhoni yo'q.

Jon jismdan chiqqan bo'lsa, jismda jon bo'lmasa nima naf bor musulmonlar,

Joni yo'q tana rayhoni yo'q tuproq bilan barobarligi aytilgan.

Bir qaro tufroqkim, yo'qtur gul-u rayhoni anga,

Ul qorong'u kechadekdurkim mohi toboni yo'q.

Gul-u rayhoni bo'lmagan qora tuproq to'lin oyi yo'q tun zulmatiga, ya'ni qorong'u kecha kabidir deb qiyoslangan.

Ul qorong'u kechakim, yo'qtur mohi toboni anga,

Zulmatedurkim, aning sarchashmayi hayvoni yo'q.

Oy nuri yo'q o'sha qorong'I kecha- u zulmatdir, chunki uning manbaida hayot suvi yo'q. Bu baytda tashqi tasvir kecha va oy, ichki holat qalb va nur bilan uyg'unlashgan. Tasavvufda bunday kecha Haqdan uzoqlik holatidir. Nur va zulmat tazod, kecha, zulmat tanosib san'atini yuzaga keltirgan.



Zulmatekim, chashmayi hayvoni aning bo'lmagay,

Do'zaxedurkim, yonida ravzayi rizvoni yo'q.

Hayot chashmasi bo'lmagan zulmat yonida jannati bo'lmagan do'zaxga qiyoslanadi.

Do'zaxekim, ravzayi rizvondin o'lg'ay noumid,

Bir xumoredurki, anda mastliq imkoni yo'q.

Jannat bog'laridan umidi qolmagan do'zaxiyki hayotiy muhabbatdan voz kechmagan ko'ngilga o'xshaydi. Shunday bir xumorki, may ichib mast bo'lishga imkoni yo'qligi uqtirilgan.

Ey Navoiy, bor anga mundoq uqubatlarki, bor,

Hajrdin dardi va lekin vasldin darmon yo'q.

Ey Navoiy, unga shunday azoblar nasib etilgan hijron dardi bor, ammo visoldan davo yo'q. Ya'ni dard bor, lekin unga qarshi davo yo'q. Shu jihatdan bayt fojeaning eng yuqori nuqtasini ifodalaydi. Bu baytda eng og'ir ruhiy holat tasvirlangan bo'lib, dard-darmon, hajr-vasl, bor-yo'q uchta so'z juftligi asosida hosil qilingan tazod san'ati mavjud.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Najmiddin Komilov Ma'nolar olamiga safar "Tamaddun" .Toshkent-2012

2. Dilnavoz Yusupova Istiqlol davri o'zbek navoiyshunosligi Toshkent-2022

3. Husanboyev Q., Niyozmetova R. Adabiyot o'qitish metodikasi.-Toshkent, 2018-352b.

4. To'xliyev B., Sarimsoqov B. Adabiyot (akademik litseylar uchun o'quv dastur).-T:O'qituvchi, 2000.-288b.

5. To'xliyev B., Mirsamiqova R., Ametova O. "Adabiyot" (majmua) Akademik litseylarning ikkinchi bosqichi uchun darslik.-"Bayoz", 2016

6. To'xliyev B., Karimov B., Usmonova K. Adabiyot 10-sinf I qism "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlatilmiy nashriyoti Toshkent-2017